



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “14” may

BUYRUQ № 98

Toshkent sh.

**Bozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma
statistika kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tartibni
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, bozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma statistika kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish uslubiyatini yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Bozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma statistika kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tartib” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 29- fevraldagi “Bozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma statistika kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 21- son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 30- oktabrdagi “Ro‘yxatdan o‘tgan xizmat ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 35- son qarori.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiritilsin.

Direktor

B. Begalov